

Buxoro tumani 1- umumiy o'rta maktabning
tarix fani o'qituvchisi

Hamroyeva Azimaning
Jahon tarixi fanidan
Bir soatlik dars

ISHLANMASI
ISHLANMASI

Mavzu: XX asrning boshlarida Xitoyning ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy ahvoli.

Darsning maqsadi :

1. **Ta’limiy maqsad :** O’quvchilarda XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Xitoyning ijtimoiy – iqtisodiy ahvoli haqida tushunchalar hosil qilish.
2. **Tarbiyaviy maqsad :** O’quvchilarni mamlakat iqtisodiy va siyosiy hayotida faollik ruhida tarbiyalash.
3. **Rivojlantiruvchi maqsad :** O’quvchilar bilimini oshirib , mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Dars turi : Yangi bilim beruvchi.

Dars usuli : interfaol.

Darsning shakli : savol – javob.

Darsning jihozi : Dunyo xaritasi , darslik , tarqatma materiallar.

Darsning shiori : Butun kuch g’ayratimizni , bilim va salohiyatimizni vatan ravnaqi yo’lida safarbar etaylik.

Dars rejasi :

1. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol.
2. Inqilobiy harakatning boshlanishi.
3. Muvaqqat Respublika hukumatining tuzilishi.
4. Sun Yat Senning faoliyati va uning Prezident etib saylanishi.
5. Yuan Shikay diktaturasi.

Darsning borishi :

- a) Tashkiliy qism: navbatchi raporti .Jahon hafta ichida. (yangiliklar)
- b) O’tgan darsni so’rash.

Savol – javob:

1. Nega Xitoy yarim mustamlakaga aylandi ?
2. Xitoyga qarshi tashqi agressiyaning kuchayishiga sabab nima edi ?
3. Sun Yat Sen faoliyati haqida nimalar bilasiz ?
4. “Xey” doktrinasi qanday maqsadni ko’zlagan edi ?

Ahliy hujum :

1. 1906 yil - AQSHda temir yo'llar faoliyatini tartibga soluvchi qonun qabul qilindi.
2. 1990 yil – Ichan qal'a butun jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi.
3. 1449 yil – Mirzo Ulug'bek vafot etdi.
4. 1605 yil – Avstraliya kashf etildi.

c) Yangi mavzu bayoni :

XX asr boshlarida Xitoyda ijtimoiy ziddiyatlar kuchayib ketdi. Sin sulolasi inqirozga yuz tutdi. Xiyot sanoati rivojlanishi ancha orqada qoldi. Shunday bo'lsada har yili 50 tadan ko'proq korxonalar ishga tushirildi. Natijada , esport 1901 yildan -1911 yilgacha 122 mln. dollardan 245 mln. dollarga o'sdi. 1911 – yil chet elliklardan temir yo'l qurilishi uchun qarz olish haqida bitim tuzilgach, qurolli qarshilik harakati boshlandi. Inqilobchilar 11 oktabrda Uxanni qo'lga kiritdilar. Ular Respublika hukumati tuzdilar. Manjur sulolasi hukmronligi tugatilganligi e'lon qilindi. Bu inqilob Xitoy tarixiga "Sinxay inqilobi" nomi bilan kirgan. Sun Yat Sen 1905 – yilda "Xitoy uyushmalari ittifoqi" degan tashkilot tuzib ittifoq dastur qabul qildi. 1911-yil 29 dekabrda Millat Majlisi to'plandi. Millat Majlisi Xitoy Respublika deb e'lon qildi. Sun Yat Sen vaqtincha Prezident etib saylandi. Inqilob natijasida Xitoyda ikki hokimiyatchilik vujudga keldi. Ularning biri - Xitoy Respublikasi hokimiyati , ikkinchisi - shimolda saqlanib qolgan imperator hokimiyati edi. 1914-yilda Yuan Shikay Konstitutsiyaviy Kengash chariqdi. Unda "Yangi Xitoy Konstitutsiyasi" qabul qilindi. Yuan Shikay prezident bo'ldi. Harbiy diktatura o'rnatildi. Respublika boshqaruv organlari tugatildi. Shu tariqa 1911 –yil inqilobi mag'lubiyat bilan yakunladi.

Lug'at :

Sinxay – o'zbek tilida yil degan ma'noni anglatadi. Xitoy oy kalendariga ko'ra, inqilob bir yil davom etgani uchun Sinxay deb atalgan.

Sin sulolasi – 1644-1911 yillarda Xitoyda hukmronlik qilgan sulola.

Mustahkamlash :

1. Sinxay inqilobi qay tariqa yuz berdi va uning oqibatlari nimalardan iborat bo'ldi ?
2. Sun Yat Sen faoliyatini qanday baholaysiz ?
3. Yuan Shikay diktaturasining o'rnatilishi haqida nimalarni bilib oldingiz ?

Testlar bilan ishlash :

1. Germaniya nima ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinda edi ? .

- a) Temir
- b) Kumush
- c) Mis *

2. Nechanchi yilda kim tomonidan to'quv dasgohi ixtiro qilindi?

- a) 1774-yilda Jeyms Uayt
- b) 1733-yil Jon Key *
- c) 1775 yil Joymys Uayt

3. Hind okeaniga boradigan dengiz yo'li nechanchi yilda ochildi ?

- a) 1498 yil *
- b) 1496 yil
- c) 1497 yil

Dasrni xulosalash.

Baholash.

“5” baho ofarin

“4” baho ofarin

“3” baho yaxshi

Uyga vazifa : XIX asr oxiri XX asr boshlarida Hindiston.